

**TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA BILINGVAL
TA'LIM IMKONIYATLARI**

Daniyarova Sitora Qulmat qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ikki tilli ta'lim tizimi talabalarga ikki yoki undan ortiq tilda bilim olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqola ikki tilli ta'lim usullariga bag'ishlangan bo'lib, unda bu usullar har bir tilni o'zaro to'ldiruvchi vositalar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Interfaol yondashuv, nofilologik ta'lim, bilingvizm, psixolingvistika, kognitiv, kasbiy, pedagogik, interferensiya.

Globalizatsiya davrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini samarali o'qitish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Ikki tilli ta'lim tizimini joriy etish talabalarga ikki yoki undan ortiq tilda bilim olish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston sharoitida esa bu jarayon ingliz tilini chuqur egallashga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganini ifodalaydi. Mazkur ta'lim modeli ayniqsa muhimdir, chunki u talabalarni ikki tilda samarali muloqot qilish orqali global iqtisodiyot va madaniyatga integratsiyalashuvga tayyorlaydi. Shu bilan birga, ikki tilli ta'lim metodologiyalari har bir tilni o'zaro bir-birini to'ldiruvchi vosita sifatida ko'rishni talab qiladi. Xususan, ingliz tilini o'qitishda an'anaviy usullargagina tayanishdan ko'ra zamonaviy, integrativ va interaktiv yondashuvlarni qo'llashga ehtiyoj ortib bormoqda.

So'nggi o'n yilliklarda xorijiy tillarga bo'lgan talab sezilarli darajada o'zgarib, ta'limdagi nazariy fanlar sohasi doirasidan amaliy fanlar yo'nalishiga o'tdi. Ilg'or texnologiyalar rivojlanishi va joriy etilishi natijasida yoshlar kompyuter va internet kabi raqamli vositalar orqali muloqot qila olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa bilim va ko'nikmalarning yangi bosqichiga o'tishni bildiradi. Ular

nafaqat shaxsiy va ijtimoiy hayotda taraqqiyot uchun xizmat qiladi, balki xorijiy tildagi haqiqiy ilmiy axborot bilan ishlashni ham taqozo etadi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish mavhum tushuncha emas, balki jamiyatda yuzaga keladigan amaliy masalalarni hal etishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, u zamonaviy talabaning ijtimoiy rivojlanishi va o'zini namoyon etishida harakatlantiruvchi omil vazifasini bajaradi. Natijada, madaniyatlararo va kasbiy kompetensiyalarni egallash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

N.D. Galskovaning ta'kidlashicha, madaniyatlararo muloqot subyekti o'z lingvomadaniy tajribasi, milliy-madaniy an'analari va urf-odatlariga asoslanib, nafaqat boshqa til kodini, balki boshqa odatlar va ijtimoiy xulq-atvor normalarini ham hisobga olishga intiladi. Shu bilan birga, u bu jihatlarning begonaligini ham tan oladi. Aynan mana shu vaziyat madaniyatlararo kompetensiyani shaxs shakllanishining ontologik (ya'ni mavjudlikka oid) o'lchovi sifatida ko'rib chiqish uchun asos yaratadi. Kommunikativ kompetensiya esa, aksincha, shaxsning lingvistik va nutqiy qobiliyatlarini ifodalaydi [6, 336-bet].

Biroq, autentik materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar til to'siqlari va etnomadaniy qiyinchiliklarga duch kelishlari muqarrar. Bu esa xorijiy nutqni hamda boshqa xalqlarning tarixiy kontekstini tushunish zaruratini ta'kidlaydi. Har qanday xorijiy tilni o'rganish o'sha mamlakat madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, turli lingvo-etnomadaniy guruhlar vakillari o'rtasida ijtimoiy muloqot zarurati paydo bo'ladi. Shu tariqa, bir yoki ikki xorijiy tilni parallel o'rganish nafaqat kommunikativ, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiruvchi murakkab integrativ jarayondir.

Nofilologik mutaxassislik talabalari uchun ikkinchi xorijiy tilni o'quv dasturiga kiritish ta'lim jarayonini ikki tilli shaklga olib keladi va bu ikki tillilikning o'ziga xos ko'rinishini ifodalaydi. Ikki tillilik, o'z navbatida, dunyoni idrok etishning kognitiv doirasini kengaytiradi hamda shaxslar, millatlar va davlatlar o'rtasida o'zaro tushunishni rivojlantiradi.

Ikki tilli ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va

kompetensiyalarini ikki til asosida rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ingliz tilini o'qitishda lingvistik, kognitiv va madaniy o'lchovlarni integratsiyalashni ko'zda tutadi. Bu yondashuv til o'rganish samaradorligini oshiradi, talabalarning ikki tilli fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va ularni global kommunikativ makonda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi.

Ingliz tili tizimining ichki qonuniyatlarini, xususan, ikki tilning qiyosiy tahlili orqali tushunish ta'lim jarayonida yuz beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi grammatik va semantik o'xshashliklar talabalarga qulay sharoit yaratadi. Ingliz tilidan muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchilar yangi bosqichda tilni yanada samaraliroq egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu asosda ingliz tilini o'rganish jarayoni yanada samarali kechadi.

Xorijiy tillarni o'rganishda qiyosiy tahlil asosiy tamoyillardan biri bo'lib, ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'limning qator fanlarida ikki madaniy va lingvistik tizimning mavjudligi o'quvchilarda turli fikrlash va xulq-atvor usullarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, oxir-oqibat, ularning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ikkinchi xorijiy tilni o'rganishda quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Lingvistik jihat – ikki xorijiy tilning struktura va elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda fonetik, leksik va grammatik tizimlardagi umumiy va xos xususiyatlarini belgilash. Bu yerda qo'llaniladigan asosiy metod – qiyosiy tahlildir.

2. Psixologik jihat – ikkinchi xorijiy tilni o'rganish jarayonining kognitiv rivojlanish va nutq shakllanishiga ta'sirini, til va tafakkur o'zaro aloqasini, ona tilining xorijiy tilni o'zlashtirishdagi rolini va barqaror motivatsiya omilini o'rganish.

3. Ijtimoiy jihat – xorijiy tillarning ijtimoiy funksiyalarini aniqlash hamda tilning muloqot, ta'lim va hujjatchilik kabi sohalarda qanday ishlatilishini tahlil qilish.

4. Pedagogik jihat – metodik masalalarni hal etish, xususan, ikkinchi xorijiy tilni o'rganishni qaysi davrdan boshlash, uni birinchi til bilan parallel ravishda o'qitish yoki keyinroq joriy etish zarurati hamda samarali metod va usullarni belgilash [4, 148-bet].

Mazkur jihatlarini chuqur tahlil qilish va ularni to'g'ri qo'llash orqali talabalar o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni hal eta oladilar, nutqiy qolip va lingvomadaniy mazmunni shakllantiradilar va oxir-oqibat til orqali madaniyatlararo kompetensiyani egallaydilar. Ikki xorijiy tilni o'rganish muammosini yangi ta'lim paradigmasi doirasida anglash ushbu jarayonni samarali tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
4. Mahkamova G.T. Innovative pedagogical technologies in English language teaching. – Toshkent, 2017. – 148 p
5. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие. М.: Изд-во «Академия», 2009. 336 с.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Harlow: Pearson Education, 2015. – 446 p.
8. Solovova E.N. Metodika obucheniya inostrannym yazykam: Bazovyy kurs: Ucheb. posobie dlya stud. ped. vuzov. – M.: Prosveshchenie, 2002. – 239 s.
9. Daniyarova S.Q. Chet tilini o'qitishda akademik bilingvizm. – Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2023. – 117-119 b.

10. Daniyarova S.Q. The essence and characteristics of metalinguistic activity of bilingual students in speech ontogeny (ontolinguistic approach)- Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities 2024, Volume 3, Issue 12, December 2024, 135-138 p